

TARIXIY-ME'MORIY YODGORLIKLAR VA ULARNI QAYTA TIKLASH

Tojiyeva Orzugul Ziyatillayevna

Oriental universiteti magistriorzugultojiyeva0@gmail.com

Karimov Abduazim Baxtiyor o'g'li

*Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti**Arxitektura fakulteti Dizayn fakulteti**E-mail: abduazimk9@gmail.com*MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 05.02.2026**Revised: 06.02.2026**Accepted: 07.02.2026*

KALIT SO'ZLAR:

*tarixiy yodgorliklar,
me'moriy obidalar,
madaniy meros,
restavratsiya, milliy
qadriyatlar, UNESCO,
arxeologiya.**Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ularni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va qayta tiklash jarayonlari keng yoritilgan. Tarixiy obidalar milliy o'zlikni anglash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda madaniy merosni asrab-avaylashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada moddiy madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi qarorining mazmun-mohiyati ilmiy tahlil qilinadi.*

Kirish

Har bir xalqning boy tarixi va madaniy merosi, avvalo, uning tarixiy-me'moriy yodgorliklarida namoyon bo'ladi. O'zbekiston hududi qadimdan Sharq va G'arb sivilizatsiyalari chorrahasi bo'lib, bu yerda turli davrlarga mansub ko'plab arxeologik, me'moriy va tarixiy obidalar shakllangan. Ushbu yodgorliklar ajdodlarimizning turmush tarzi, ilm-fan, me'morchilik va san'at sohalaridagi yuksak yutuqlaridan dalolat beradi.

=====

Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy-me'moriy yodgorliklarni asrash, ularni ilmiy asosda o'rganish va kelajak avlodga yetkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan ham mazkur maqolada tarixiy yodgorliklarning ahamiyati va ularni muhofaza qilishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi.

Asosiy qisim:

Tarixiy-me'moriy yodgorliklar keng ma'noda xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini aks ettiruvchi obidalar majmuasidir. Ular arxeologik, tarixiy, me'moriy va monumental san'at yodgorliklariga bo'linadi. O'zbekiston hududida 7000 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ular orasida Zarautsoy qoyatosh rasmlari, Sopollitepa, Fayoztepa, Kampirtepa, Tuproqqal'a, Ayazqal'a kabi yodgorliklar alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Zarautsoy qoyatosh rasmlari mezolit va neolit davrlariga mansub bo'lib, ular qadimgi odamlarning ovchilik, turmush tarzi va diniy tasavvurlarini aks ettiradi. Sopollitepa va Fayoztepa yodgorliklari esa bronza va antik davr madaniyatining rivojlanganligini ko'rsatadi. Kampirtepa va Tuproqqal'a yodgorliklari esa qadimgi shaharsozlik va mudofaa inshootlarining mukammal namunalaridir.

Tarixiy-me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish xalqaro miqyosda ham muhim masala hisoblanadi. 1972-yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan "Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Konvensiya ushbu sohadagi asosiy hujjatlardan biridir. Bugungi kunda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu obidalar jahon miqyosida muhofaza qilinmoqda.

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqning qonida, tarixiy hotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o'rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo'nalishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo'qolishi xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globalashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflari burchimizdir. Islom haqiqatni anglash demakdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi.

Samarqandda Imom Buhoriy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilishi boshlangan. Bundan maqsad – islom dinining haqiqiy

insonparvarlik mohiyatini, ma'rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish uqtirib o'tildi. Shu yo'lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday ulug' ishlarni amalga oshirganliklari haqida ular ana shu maskanlarga kelib o'zlari uchun kerakli, eng muhim bo'lgan bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi. Eng asosiysi ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topadi.

Shuningdek, Imom Termiziy nomlaridagi ilmiy tadqiqot markazlari, islom akademiyasi kabi ilmiy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari boshlandi. Toshkent shahrida Islom tsivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi, "Jaholatga qarshi – ma'rifat" shiori ostida kurash olib borishga imkoniyat yaratildi. Demak, Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buhoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Motrudiy markazi qoshida Kalom ilmi, Farg'onada – Marg'iloniy markazida Islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida Tasavvuf, Qashqadaryoda Abu Muin Nasafiy markazida Aqiida ilmi maktablari tashkil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy, mantiqiy va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, arxeologik va tarixiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, mualliflik xulosalari chiqarildi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, tarixiy-me'moriy yodgorliklarni asrash va qayta tiklash milliy o'zlikni anglash, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar va dasturlar ushbu sohaning izchil rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Tarixiy obidalarni muhofaza qilish har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Tarixiy-me'moriy yodgorliklar xalqimizning boy madaniy merosi va milliy tarixining eng muhim qismidir. Ular o'tgan asrlar voqealari, hayot tarzi va me'moriy uslublarni aks ettirishi bilan birga, bugungi avlodga milliy qadriyatlarimizni yetkazish, tarixiy ongni shakllantirish va milliy g'ururni mustahkamlash imkonini beradi. Har bir yodgorlik – bu o'tgan davrlarning guvohi, ajdodlarimizning bilimi, mehnati va estetik didining ifodasidir. Yodgorliklarni qayta tiklash esa faqatgina binolarni restavratsiya qilishdan iborat emas. Bu – tarixiy haqiqatni saqlab qolish, madaniy muhitni tiklash, qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga singdirish va milliy ruhni uyg'otish jarayonidir. Shu orqali yoshlar o'z ildizlari bilan tanishadi, tarixiy faxr tuyg'usini his qiladi va o'z jamiyati, madaniyati va davlatiga sadoqatini oshiradi. Bugungi

globallashuv va madaniyatning tezkor o'zgarishi davrida tarixiy-me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash va ularni qayta tiklash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat tarixiy ongni rivojlantiradi, balki turizm, ilmiy-tadqiqot va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Shu bois, davlat siyosati va jamiyat sa'y-harakatlari doimo ushbu yo'nalishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tarixiy-me'moriy yodgorliklarni saqlash va tiklash nafaqat madaniy merosni asrash, balki milliy ongni rivojlantirish, yosh avlodni tarbiyalash va milliy qadriyatlarni kelajak avlodlarga yetkazish bo'yicha strategik vazifa sifatida qaraladi. Bu ishlar davom ettirilsa, xalqimizning boy tarixi va madaniyati barqaror ravishda saqlanadi, milliy g'urur va identifikatsiya mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. Toshkent, 2000.
3. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A. Sabirov. Toshkent: Akademiya, 2013.
4. Buranova N., Xudayorov A. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2018.